

**Xizmat ko'rsatish korxonalarida rahbarlik mahoratini shakllantirish  
Shirinqulova Maftuna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida rahbarlik qilishning boshqaruv madaniyati hamda rahbarlik menejmentda kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish yuzasidan fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv, madaniyat, menejment, kreativlik, kompetensiya, rahbar, lider, ijtimoiy, iqtisodiy, uslub, ijodkorlik.

**Kirish**

Hozirgi zamon fanida "rahbar", "lider" yoki "liderlik uslubi" va "rahbarlik uslubi" tushunchalarining nisbati yo'nalishidagi muammolar eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bularning ichida ko'proq ahamiyat kasb etuvchi B.D. Pargin fikriga ko'ra lider ma'lum bir guruhda shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirib turadi, mikro muhitning elementi hisoblanadi, kutilmaganda vujudga keladi va uning holatining barqarorligi kamroq bo'lib, harakatlanishi guruhning kayfiyatiga bog'liq va u ko'proq guruhning faoliyatiga aloqador bo'lgan qarorlar qabul qiladi.<sup>1</sup> Rahbar esa ijtimoiy tashkilot hisoblangan guruhlarda rasmiy munosabatlarni muvofiqlashtiradi va makro muhitning elementi hisoblanadi. Rahbar holatining barqarorligi ko'proq bo'lib, u ma'lum bir tizimda bir necha marta ko'proq vakolatlarga, qaror qabul qilish, buyruq berish, topshiriqlar berish, talab qilish huquqlariga ega. Qaror qabul qilish jarayoni birmuncha murakkabroq bo'lib, ko'pgina, turli xil vaziyatlarni qamrab oladi va bu vaziyatlar faqatgina bitta guruhga tegishli bo'lmaydi. Rahbar ma'lum bir kengroq ijtimoiy tizimning kichik bir guruhida faoliyat ko'rsatsada, uning harakat doirasi keng hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili**

Tadqiqotchi A.Nosirov<sup>2</sup> rahbarlik menejmentida kompetensiyani muhimligini ta'kidlab o'z fikrlarini bildiring boshqarishda qo'yidagi qobiliyat kompetensiyalari:

1. Standart kompetensiya ushbu ya'ni faoliyatga oid innovatsion vazifalarni belgilab olishi qobiliyatidir;
2. Asosiy kompetensiya – ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni belgilash olish qobiliyati;
3. Yetarli kompetensiya kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati;
4. Kasbiy kompetensiya – pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish, o'z ustida ishlash o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirishdan iborat, deb ta'kidlaydi.

"Menejment qoidalariga rioya qilib ishlayotgan maktab rahbarlari bugungi ta'lim sohasidagi islohotlarni his etib, boshqarishni zamonaviy kompetentlik qoidalari asosida ishni tashkil etib kuchli instruktiv yetakchilik, aniq belgilangan maqsad, o'qituvchilardan kutilayotgan ijodiy natijalar, o'qib-o'rganish, o'rgatish uchun zaruriy muhit, o'quvchilar va sinfni doimiy kuzatish, oila, maktab, mahalla hamkorlik aloqalarini mustahkamlaydilar. Yangi ilmiy izlanishlar obod mahalla, obod mahalla, obod uy va namunaviy oila tashabbusi asosida rahbarlik ishlarini tashkil etishni talab qiladi. "Boshqaruv madaniyati – bu ma'muriy

<sup>1</sup> Kenjaboyev A, Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Termiz 2022 yil.

<sup>2</sup> Kenjaboyev A.E. Pedagogik rahbarning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahorati. Zamonaviy ta'lim jur. 2020 № 10.

ijtimoiy va rahbarning psixologik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi professional va ishchanlik sifatli sintezidir. “Rahbar” degan nomga ega bo‘lgan har bir shaxs o‘z tashqi qiyofasi, madaniyat kiyinishi, talabchanligi, bilimi, tashkilotchiligi bilan atrofda qilarga hamisha ibrat namuna bo‘lmog‘i lozim. G.Kunts va S.O.Dannelning aniqlashicha, “agar bo‘ysunuvchilar rahbarlar tomonidan o‘rnatilgan tartib qoidalar va ehtiyojlarga ko‘ra boshqarilsa, ular o‘z imkoniyatlarining taxminan 60 yoki 65% darajasida ishlashi mumkin, ya‘ni o‘z ishida saqlanib qolish maqsadida, shunchaki o‘z majburiyatlarini qoniqarli darajada bajaradi, bo‘ysunuvchilarning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun, rahbarlar liderlikni amalga oshirish bilan ularda tegishli mulohaza shakllan tirishi zarur”.<sup>3</sup>

### **Muhokama va natijalar**

Rahbarlik - odamlarga maqsadli ta‘sir o‘tkazishga qaratilgan, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq boshqaruvning tarkibiy qismidir. Saylab qo‘yilgan yoki tayinlangan rahbar qator funktsiyalarni bajaradi: jamoa faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag‘batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, uni nazorat qilishni amalga oshiradi. Mahorat-bu yuqori va yuksalib boruvchi tarbiya va o‘qitish san‘atidan iborat. Rahbar o‘z ishining ustasi, o‘z fanini chuqur biluvchi, fan va san‘atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o‘qitish va tarbiyalash metodikasini har tamonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo‘lgan mutaxassisdir. Bo‘lajak mutaxassislarning mahoratini oshirishda ma‘ruza darslarining o‘rni qanchalik zarur bo‘lsa, seminar mashg‘ulotlarining o‘rni ham shunchalik muhimdir. Ijtimoiy hayot qonunlarini aniq tushunish, milliy-ahloqiy qadriyat, mafkura mazmunini anglash tarbiyalanuvchilarda bobolar, avlodlar ruhiga hurmatni, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik sohada: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish, ruhiy pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, xaqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik qat‘iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o‘zini tuta bilish kasbiy layoqatlilik. Bilim sohasiga: keng ilmiy saviya, ma‘naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish. Faoliyatlar kishini o‘ziga duch kelgan hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi. Pedagogik malaka-egallagan bilim va ko‘nikmalarni faoliyatning ma‘lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir. Bu fahm-farosat va bilimlarning chinakam ilmiyligi, tarbiyadagi qiyinchiliklarning yengishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbarlik bolalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo‘lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo‘lgan qobiliyat mujassamdir. Shuni alohida qayd qilib o‘tmoq zarurki, pedagogik kasbi murakkab va ma‘suliyatli kasbdur. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo‘lgan inson bilan muloqotda bo‘ladi. Ongli va tirik jonzo esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo‘ladi. Shuning uchun, bilan doimo muloqotda bo‘lganda, unga ta‘sir ko‘rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o‘rganib, o‘z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu tarbiyachilarda pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarlikni ta‘minlaydi. Pedagogik mahorat - pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayon esa

<sup>3</sup> . Kenjaboyev A.E. “Zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetentligi va kreativligi –bugungi kun talabidir”. Xalq ta‘limi jurnali 2020 yil № 5.9-11 bet.

kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni yo'lga qo'yib, bo'lajak mutaxassisni mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shuning uchun, pedagog shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo'lishi lozim. Yuqorida qayd etib o'tilgan va pedagogik mahoratga berilgan ta'rif, hamda - tarbiyachining professiogrammasi xususiyatlari va pedagoglarga qo'yiladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy talablardan kelib chiqib pedagogika nazariyasi pedagogik mahoratni quyidagi asosiy komponent (tarkibiy qism)lardan iborat bo'lishi lozimligini ifodalaydi

**Xulosa:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019 yil 23 avgustdagi xalq ta'limi tizimi xodimlari bilan bo'lgan telemuloqotda quyidagicha fikrlarni bildirganlar: "Hozirgi zamon rahbarining asosiy vazifalaridan biri – kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatligi, g'oyaviy e'tiqodligi va o'z kasbini sevishidir. Bu fazilatlar rahbarlarni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi".<sup>4</sup> Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari pedagogning kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari yetaklaydi va tarbiyachida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi. Ammo, o'z kasbining mohir ustoz bo'lish uchun faqatgina ularga tayanib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o'ylash, pedagogik ish tutish lozim bo'ladi. Bu deganimiz, o'z faoliyatini pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bog'lanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi ta'lim-tarbiyaga doir g'oyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim bo'ladi. Asosiy pedagogik-psixologik muammolarni topa olish ularni hal etishning eng qulay yo'llarini topish ustida o'ylash ham kerak. Insonparvarlik- insonning qadri erkinligi baxt-saodati teng huquqliligi to'g'risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Pedagoglarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish; oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'z g'alar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Kenjaboyev A, Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Termiz 2022 yil. 100 bet.
3. Kenjaboyev A.E. Pedagogik rahbarning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahorati. Zamonaviy ta'lim jur. 2020 № 10. 83 bet.
4. Kenjaboyev A.E. "Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligi va kreativligi – bugungi kun talabidir". Xalq ta'limi jurnali 2020 yil № 5.9-11 bet.

<sup>4</sup> Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.